

**KADASTR ORGANLARI QARORLARI VA
HARAKATLARI(HARAKATSIZLIGI) USTIDAN MA’MURIY SUDGA
MUROJAAT QILISH SABABLARI VA MUAMMOLARI**

Tursunqulova Maftuna Ulug’bek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti.

E-mail: maftunaturunqulovatsul@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma’muriy nizolarni hal qilishning huquqiy asoslari, ma’muriy nizolarni hal qilishda borasida huquqni qo’llash amalyotidagi muammolar tahlil qilingan. Jumladan, ma’muriy sudlarga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan buzilgan yoki nizolashayotgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini yuzasidan murojaatlarining soni oshib borayotganligining sabablari ma’muriy organlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan yo’l qo’yilayotgan kamchiliklarga bog’liqligi tahlil qilingan. Mazkur muammolar kadstr organlari misolida tahlil qilingan bo’lib, ular moddiy, protsessual va tashkiliy asoslarga bog’liq.

Kalit so’zlar: ma’muriy nizo, ma’muriy yustitsiya, ma’muriy tartib-taomillar, davlat boshqaruvi, manfaatdor shaxs, ma’muriy sud.

Аннотация: В данной статье анализируются правовые основы разрешения административных споров, проблемы правоприменения при разрешении административных споров. В частности, проанализировано, что причины увеличения количества обращений физических и юридических лиц в административные суды по поводу их нарушенных или оспариваемых прав и законных интересов связаны с недостатками, допущенными административными органами и их должностными лицами. Эти проблемы анализируются применительно к кадастровым органам и зависят от материальных, процессуальных и организационных основ.

Ключевые слова: административный спор, административная юстиция, административные процедуры, государственное управление, должностное лицо, административный суд.

Annotation: This article analyzes the legal basis of administrative dispute resolution, the problems of law enforcement in administrative dispute resolution. In particular, it was analyzed that the reasons for the increasing number of appeals to administrative courts by individuals and legal entities regarding their violated or disputed rights and legal interests are due to the deficiencies made by administrative bodies and their officials. These problems are analyzed in the case of cadastral bodies, and they depend on material, procedural and organizational foundations.

Keywords: administrative dispute, administrative justice, administrative procedures, public administration, civil servant, administrative court.

Huquqiy demokratik davlat qurish borasidagi islohatlar, avvalo, huquq sohalarida o'z ifodasini topmog'i kerak. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ma'muriy huquqning ijtimoiy ahamiyati, eng avvalo, shaxs va ma'muriy organlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, shuningdek davlat boshqaruvi sohasida fuqorolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularni davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining o'zboshimchaligidan himoya qilishda yaqqol namoyan bo'ladi. Ta'kidlash o'rinliki, bugungi kunda aynan davlat boshqaruvida shaxs huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq ma'muriy-yustitsiyaviy huquqiy tartibga solishga qaratilgan masalalar dolzarbligicha qolmoqda.

Ma'muriy yustitsiya – bu jismoniy va yuridik shaxslarning davlat boshqaruvi organlari va boshqa ma'muriy organlar bilan o'zaro munosabatlarda vujudga keladigan ommaviy harakterdagi nizolarni hal etishga qaratilgan tashkiliy- huquqiy mexanizmdir.

Davlat organlar va ularning mansabdor shaxslari qonun doirasida faoliyat yuritishi va o'z vazifalarini og'ishmay bajarishi mamlaktimizda qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Zero, fuqorolarning huquqlarini

ta'minlanishi davlat organlari va mansabdor shaxslarining qonuniy va samarali faoliyatiga bog'liq.

Ma'lumki, davlat boshqaruvida shaxs huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq ma'muriy nizolarni ikki xil tartibda, ya'ni yuqori turuvchi organ yoki odil sudlov orqali hal etiladi.

Har qanday manfaatdor shaxs o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ma'muriy sudga (sudga) murojaat qilishga haqli.

Manfaatdor shaxslarning o'z buzilgan yoki nizolashayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ma'muriy sudlarga murojaati soni kundan kun ortib bormoqda. Statistika ma'lumotlarga qaraganda, yil fuqorolar tomonidan ma'muriy sudlarga **15 347** ta shikoyat qilingan (7 458 tasi qanoatlantirilgan), shulardan ma'muriy organ qarorini haqiqiy emas deb topishga doir **9 215** ta, ma'muriy organ mansabdor shaxsi xatti-harakati (harakatsizligi) ustidan **4 653** ta (**2 253** tasi qanoatlantirilgan) shikoyat arizalari ko'rib chiqilgan. Ma'muriy sudlarning birinchi instansiyasida yer bilan bog'liq ko'rilgan ishlar soni **3 965** tani tashkil etib, **1 468** tasi ariza qanoatirilgan.

Yuqoridagilardan ma'lumki, ma'muriy sudlarga davlat boshqaruvi organlar ustidan qilingan shikoyatlarning deyarli yarmi qanoatlantirilgan hamda buning sababi ma'muriy organlar tomonidan yo'l qo'yilayotgan quydagi kamchliklarga bog'liq. Buni kadastr organlari misolida tahlil qilsak.

Birinchidan, davlat kadastr organi tomonidan yer maydoni ikki yoki undan ortiq shaxsga ro'yxatdan o'tkazib berish holatlari kuzatilmoqda. Binoga egalik huquqi belgilashda ajratilgan yer maydoni boshqa shaxs nomiga davlat ro'yxatidan o'tgan yoki o'tmaganligi holatlari tekshirilmagan. **Misol uchun**, Davlat kadastr palatasi shahar filiali tomonidan 2014-yil 30-iyunda "Mustaqillik" ko'chasi 12-uyda joylashgan 4.470 m²dan iborat yer uchastkasi "GALA OSIYO AVTO TEX SERVIS PLYUS" MCHJga

tegishli ekanligi haqida BU 0000714-raqamli yer uchastkasiga bo'lgan huquqning davlat ro'yxatiga olinganligi to'g'risida guvohnoma berilgan.

Davlat kadastr palatasi shahar filiali 2016-yil 29-iyundagi BU 0006817-raqamli guvohnoma bilan "Mustaqillik" ko'chasi 14-uyda joylashgan Maktabgacha talim bo'limiga qarashli 76-son maktabgacha ta'lim muassasasiga 57.800 m² yer maydoni doimiy foydalanishga berilgan. Bu yer maydonining 208,5 m² yer maydoni va ushbu yer maydonida joylashgan 126 m² iborat bo'lgan bino BU 0000714-raqamli guvohnoma bilan MCHJga tegishli bo'lgan.

Amaldagi Yer kodeksi 32-moddasiga ko'ra, yer uchastkasining plani — yer uchastkasining topografik plani bo'lib, qabul qilingan belgilarga muvofiq unda muayyan yer uchastkasining chegaralarida vaqt jihatidan eng so'nggi yer tuzilishi loyihasiga muvofiq so'nggi bor suratga olingan paytdagi butun vaziyat va relyef ko'rsatiladi. Yer uchastkasining chegaralarini joyning o'zida va xaritalarda dastlabki tarzda belgilash ajratib berish uchun yer uchastkasi tanlangan vaqtda uni berish to'g'risida qaror qabul qilinguniga qadar amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, Arizachi T. Sobirov Urganch shahar paxtakor ko'chasi 16-uyini 2021-yil 28-yanvar kuni fuqaro M.Ibragimovadan sotib olganligini, oldi-sotdi shartnomasiga asosan turar joyini nomiga rasmiylashtirganini va kadastr palatasi Urganch shahar bo'limiga uyning kadastr passportini rasmiylashtirish maqsadida murojaat qiladi. Davlat kadastr palatasi Urganch shahar bo'limi arizani rad qilinganligini, bunga asos qilib, uy ikkita odamga sotilganini aytgan. 2002-yil 3-mart kuni uy joy oldi-sotdi shartnomasiga asosan M. Ibragimova tomonidan Urganch shahar paxtakor ko'chasi 16-uy uchinchi shaxs O. Atajanovga sotilgan. Biroq uy uchinchi shaxs O. Atajanov nomiga davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 31-moddasiga ko'ra, Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkasiga bo'lgan huquqi joyning o'zida chegaralar belgilanganidan, yer uchastkalarining planlari (chizmalari) va tavsiflari tuzilib, yer uchastkalariga bo'lgan huquq davlat ro'yxatiga olinganidan keyin vujudga keladi.

Shundan ko'rinadiki, Urganch shahar paxtakor ko'chasi 16-uy T. Sobirov nomiga davlat ro'yxatidan o'tgan. Davlat kadastr palatasi Urganch shahar bo'limi mansabdor shaxsi tomonidan 16-uyning kadastr pasportini tayyotlab berishni asossiz ravishda rad etganligi sababli sud ma'muriy organ mansabdor shaxsining harakatsizligini qonunga xilof deb topadi.

Uchinidan, kadastr organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonuni Tinglanish imkoniyatining mavjudligi prinsipini buzishi holatlari kuzatiladi. Ma'muriy organ manfaatdor shaxsga ma'muriy hujjatni qabul qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan barcha holatlar yuzasidan o'z fikrini bildirish imkoniyatini berishi shart.

Misol uchun, Urganch shahar hokimining 2019-yil 28 avgust kunidagi 2077q-sonli qarori bilan arizachiga Urganch shahar P.Maxmud ko'chasida "Amir Temur nomli madaniyat va istirohat bog'i" hududida Yoshlar mehnat guzari qurish uchun umumiy 400,0 m² yer maydoni ajratib berilgan. Arizachi DXM orqali hujjatlarni Davlat kadastr palatasi Xorazm viloyat boshqarmasi Urganch shahar bo'limiga taqdim qilib, o'ziga ajratilgan yerni davlat ro'yxatidan o'tkazishni so'ragan. Urganch shahar bo'limi arizani prakror protestiga muvofiq 2019-yil 28 avgust kunidagi 2077q-sonli qarori bekor qilinganligini aytib rad etadi.

"O'zbekiston Respublikasi davlat yer kadasrti to'g'risida"gi qonunning 16-moddasiga asosan Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olishni rad etish faqat quydagi asoslarda bo'lishi mumkin:

davlat ro'yxatiga olish organida mazkur yer uchastkasining kimga tegishli ekanligi to'g'risida nizo borligidan dalolat beruvchi hujjatlarning mavjudligi;

davlat ro'yxatiga olish organida mazkur yer uchastkasi qonunda belgilangan tartibda olib qo'yilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi. 16-modda 2 banddan kelib chiqib Urganch shahar hokimining 2019-yil 28 avgust kunidagi 2077q-sonli qarori "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun 9-moddasi buzilib, qonunda belgilangan tartibda olib bekor qilinmagan.

To'rtinchidan, 2022-yil 16-mart kuni Davlat kadastr palatsi Qarshi tuman bo'limiga murojaat qilib, Qashqadaryo viloyat yilqichilik va ot sporti federatsiyasi ijrochi derektori murojaat qilib, 2017-yil 22 dekabrda X-2378/12 sonli qarori bilan federatsiya bo'linmasi nomiga Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani "Qoratepa" QFY, otchopar massivi hududidan yer ajratilganligini va 2019-yil 12 mart kuni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini lekin federatsiya yerining bir qismi 2020-yil 25-may kuni noqonuniy ravishda N.Nazarovning nomiga davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini aytgan. N.Nazarovning nomiga davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kadastr hujjatini Davlat kadastr palatsi Qarshi tuman bo'limi bazasidan ro'yxatdan chiqarish hamda Qashqadaryo viloyat yilqichilik va ot sporti federatsiyasi nomiga qayta ro'yxatdan o'tkazishni so'rab murojaat qilgan, 313-sonli javob xati bilan nizo mavjudligi vaji bilan arizachining murojaati rad qilingan.

Aniqlanishicha, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-dekabrda 1060-sonli "Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining [7] 1-ilova "Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 15-bandida ko'chmas mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'lishi aytilgan, ya'ni:

davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organda ushbu ko'chmas mulk obyektining mansubligi masalasida nizolar borligidan dalolat beruvchi sud hujjatlarining mavjudligi;

vakolatli organ tomonidan ko'chmas mulk obyektiga taqiq yoki xatlov qo'yilganligi;

taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri, qarama-qarshi yoki buzilgan ma'lumotlar topilishi;

birlamchi kadastr yig'majildining (kadastr pasporti) mavjud emasligi;

davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organda ushbu yer uchastkasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olib qo'yilganligi haqidagi ma'lumotlarning mavjudligi;

ro'yxatdan o'tkazuvchi tomonidan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'xtatib turilgan hollarda, taqdim etilgan materiallardagi kamchiliklarning uch ish kuni mobaynida bartaraf etilmasligi;

yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda bekor qilinganligi;

huquqlarning vujudga kelishini belgilamaydigan hujjatlarning taqdim etilishi.

Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni boshqa asoslar bo'yicha rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Zero, yuqorida qanday hollarda rad etish asoslari belgilangan bo'lsada, ammo Davlat kadastr palatsi Qarshi tuman bo'limi tomonidan arizachi arizasi rad etish asoslarida ko'rsatilmagan asos bilan rad qilganligi ko'rinadi.

Ta'kidlash lozimki, ma'muriy nizolarni oldini olish faqtgina ma'muriy tartib taomillar to'g'risidagi qonunchilikni tartibga solish bilan hal etib bo'lmaydi. Ma'muriy ish yurituvida ma'muriy organlar ma'muriy huquqning moddiy huquq normalariga murojaat qilishga majbur. Bu holatda ma'muriy nizolarni keltirmaydigan harakat(harakatsizlik)lar qilish muhim. Bu borada ma'muriy organ ma'muriy tartib-taomillar prinsiplariga amal qilishga majbur.

K. Davidov ma'muriy tartib-taomillar prinsiplarining quyidagi hususyatlarini takidlab o'tadi:

1. Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplari to'g'ridan to'g'ri qo'llaniladi;
2. Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplari unversaldir;
3. ma'muriy tartib-taomillar prinsiplariochiqdir;
4. ma'muriy tartib-taomillar prinsiplari ierarxik hususyatga egadir.

Lars Brokerning fikricha, ma'muriy tartib-taomillar prinsiplarining ikkta vazifasi mavjud:

-manfaador shaxs huquqlarini himoya qilish;

-ma'muriy organlar tomonidan qabul qilingan qaror demokratiyani qonuniylashganini aks ettirishi kerak.

Germanyalik olim Ya.Tsikoning takidlashicha ma'muriy tartib taomilar prinsiplari sodda, maqsadga muvofiq va tezkor qollanilishi lozim.

Sodda va madsadga muvofiq deganda quyidagilarni tushunishimiz mumkin:

Birinchidan ma'muriy hujjat qabul qilishda aniq faktlarga asoslanishi lozim;

Ikkinchidan, ishga aloqador bo'lmagan dalilarni isbotlash shart emas;

Uchinchidan, yozma ravishda asoslab berilgan dalillar fuqoroni bevosita ishtirokida hal etilishi shart emas.

Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplarini tezkor qollanishi bu vaqtni behuda sarflamasdan uni amalga oshirish lozimligini anglatadi. Misol uchun, "O'zbekiston Respublikasi davlat yer kadasrtri to'g'risida"gi qonunning 13-moddasiga ko'ra, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatiga olish yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar to'g'risidagi zarur hujjatlar ilova etilgan ariza kelib tushgan paytdan e'tiboran **ikki kunlik muddatda** tegishli vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno. Mazkur normada belgilanga muddat 2 kundan oshmasligi belgilab berilgan. Bunday vaziyatda kadastr organlari ishni iloji boricha tezkor hal qilishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mazkur prinsiplar ichida mutanosiblik prinsipi ham muhim ahamyatga ega. Klassik german mutanosiblik prinsipi 4 mezondan iborat:

- qonuniy maqsad
- mos bo'lishlik
- zaruriylik
- proporsionallik.

O'zbekiston Respublikasining qonunlaridan kelib chiqadigan maqsad qonuniy hisoblanadi.

Ma'muriy akt, ma'muriy harakat, agar ular qonuniy maqsadga erishilishini

ta'minlshga qodir bo'lsa, maqsadga mos hisoblanadi.

Ma'muriy akt, ma'muriy harakat, agar ular manfaatdor shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini eng kam darajada cheklasa, zaruriy hisoblanadi.

Moshe Koen-Eliyaning takidlashicha, mazkur prinsipning ikkita o'ziga xos jihati mavjud:

Birinchidan, ma'muriy organ tomonidan amalga oshiriladigan harakat erishiladigan maqsadga muvofiq bo'lishi lozim;

Ikkinchidan, ma'muriy tartibot natijasida shaxsga yetkazilgan zarar davlat ko'rgan foydaga mutanosib bo'lishi lozim. Bunga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 41- moddasiga binoan jismoniy shaxslarga berilgan yer uchastkalari davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun mazkur shaxsning roziligi bilan avvalgi yer uchaskasiga mos yer uchastkasi ajratilgach, yetkazilgan zarar (shu jumladan boy berilgan foyda) to'la hajmda qoplangandan keyin olib qo'yilishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Хорижий мамлакатларда маъмурий юстиция. Артиков Д., Қосимов Б. 2018 3-bet.
2. Artikov Dilmurod Rahmatillaevich. REASONS AND PROBLEMS OF APPEALING DECISIONS AND ACTIONS (INACTION) OF ADMINISTRATIVE BODIES IN ADMINISTRATIVE COURTS. Journal of Law Research. 2023, 8 vol., issue 4, pp.
3. <https://lex.uz/docs/3527353>
4. <https://stat.sud.uz/mib.html>
5. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son; 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; 30.06.2022-y., 03/22/782/0576-son)

6. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-so
7. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2018-y., 09/18/1060/2405-son, 12.06.2019-y., 09/19/478/3273-son, 02.07.2019-y., 09/19/548/3362-son; 01.04.2020-y., 09/20/195/0391-son; 03.09.2020-y., 09/20/535/1247-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.01.2022-y., 09/22/18/0019-son; 26.03.2022-y., 09/22/133/0237-son; 20.04.2022-y., 09/22/200/0327-son; 08.07.2022-y., 09/22/375/0618-son; 19.10.2022-y., 09/22/610/0938-son)
8. Давыдов К.В. Принципы административных процедур: сравнительно-правовое исследование // Актуальные вопросы публичного права.- 2015. № 4 (34). С. 18. (Davydov K.V. The principles of administrative procedures: comparative legal research // Actual issues of public law- 2015 № 4 (34). М. Р. 18)
9. Ларс Брокер. Инквизиционный принцип в административной процедуре. Ежегодник публичного права-2018. Принципы административных процедур и административного судопроизводства.-М. с.16 (Lars Broker. Inquisition principle in administrative procedure. Public Law Year 2018. The principles of administrative procedures and administrative proceedings.-М. р.16)
10. Я.Цико. Основы законодательства об администивных процедурах в Германия. Ежегодник публичного права-2014.-М. с.365 (Y.Tsiko. Fundamentals of legislation on administrative procedures in Germany. Public Law Yearbook- 2014.-М. Р.365)
11. Моше Коэн-Элия, Иддо Порат. Американский метод взвешивания интересов и немецкий тест на пропорциональность: исторические корни // Сравнительное конституционное обозрение. 2011. № 3 (82). С. 61.